



**YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISHDA FISKAL BOSHQARUV
VOSITALARINING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI
O'RNI**



Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD).,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashirin iqtisodiyotni qisqartirish jarayonida fiskal boshqaruv vositalarining ahamiyati va ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda soliq ma'muriyatchilagini modernizatsiya qilish, fiskal jarayonlarda raqamlashtirish, byudjet shaffofligini oshirish va institutsional islohotlarni amalga oshirish omillari alohida ko'rib chiqilgan. Xalqaro tajriba va nazariy yondashuvlar asosida fiskal boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi nafaqat soliq bazasini kengaytirishi, balki davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va investitsion muhitni yaxshilashda ham strategik rol o'ynashi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Yashirin iqtisodiyot, fiskal boshqaruv, soliq ma'muriyatchiligi, raqamlashtirish, byudjet shaffofligi, makroiqtisodiy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется значение инструментов фискального управления в процессе сокращения теневой экономики и их влияние на обеспечение макроэкономической стабильности. В исследовании особое внимание уделено модернизации налогового администрирования, цифровизации фискальных процессов, повышению прозрачности бюджетного цикла и проведению институциональных реформ. На основе международного опыта и теоретических подходов обосновано, что эффективность механизмов фискального управления заключается не только в расширении налоговой базы, но и в обеспечении финансовой устойчивости государства, укреплении социальной справедливости и улучшении инвестиционного климата.

Ключевые слова: Теневая экономика, фискальное управление, налоговое администрирование, цифровизация, прозрачность бюджета, макроэкономическая стабильность.

Abstract: This article analyzes the role of fiscal governance instruments in reducing the shadow economy and their impact on ensuring macroeconomic stability. The study focuses on the modernization of tax administration, the digitalization of fiscal processes, the enhancement of budget transparency, and the implementation of institutional reforms. Drawing on international experience and theoretical approaches, the paper demonstrates that the effectiveness of fiscal governance mechanisms lies not only in expanding the tax

base but also in strengthening the state's financial stability, promoting social justice, and improving the investment climate.

Keywords: Shadow economy, fiscal governance, tax administration, digitalization, budget transparency, macroeconomic stability.

Kirish

Yashirin iqtisodiyot fenomeni zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u fiskal siyosat samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorlikni bevosita izdan chiqaruvchi omil sifatida ilmiy hamjamiyat va davlat siyosatining markazida turibdi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va OECD kabi xalqaro moliyaviy institutlarning tadqiqotlariga ko'ra, ayrim mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyot hajmi yalpi ichki mahsulotning yarmiga yaqinlashadi. Bu holat davlat byudjeti uchun katta moliyaviy yo'qotishlar, soliqqa rioya qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida raqobat sharoitining buzilishi, ijtimoiyadolat tamoyillarining zaiflashuvi hamda investitsion muhitning beqarorlashuviga olib keladi.

Nazariy nuqtayi nazardan, yashirin iqtisodiyot nafaqat soliqlardan bo'yin tov lash muammosi, balki davlatning fiskal boshqaruvdagi institutsional zaifliklarini ham ko'rsatuvchi indikator sifatida talqin etiladi. Shu bois fiskal boshqaruv vositalari – jumladan soliq ma'muriyatichilagini modernizatsiya qilish, byudjet jarayonini shaffoflashtirish, raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish va korrupsiyaga qarshi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish – iqtisodiyotni formallashtirishning muhim drayverlari hisoblanadi.

Xalqaro amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi ularning kompleks qo'llanishiga va institutsional muhit sifati hamda ijtimoiy ishonch darajasiga bevosita bog'liqdir. Masalan, Estoniya, Janubiy Koreya va Chili tajribasi fiskal boshqaruv jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali nafaqat soliqlarni yig'ish hajmini oshirish, balki davlat boshqaruviga bo'lgan fuqarolik ishonchini kuchaytirish imkonini bergen. Demak, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nafaqat fiskal instrumentlar, balki chuqur institutsional islohotlar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Adabiyotlar sharhi

XXI asrda iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan davlat moliyasini samarali boshqarishga bog'liq bo'lib, fiskal tizimdagagi kamchiliklar yashirin iqtisodiyotning kengayishiga zamin yaratmoqda. Schneider va Medina (2018) tadqiqotlariga ko'ra, norasmiy iqtisodiyotning ulushi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda YAIMning 30–40 foizigacha yetadi, bu esa davlatning fiskal imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Bunday sharoitda soliq tushumlarining kamayishi nafaqat byudjet defitsitini chuqurlashtiradi, balki davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish salohiyatini ham zaiflashtiradi.

Fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi ularning institutsional tizimga qanchalik integratsiyalashganiga bog'liq. North (1990) ta'kidlaganidek, barqaror institutlar iqtisodiy faoliyatni rasmiy maydonga jalg etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu ma'noda, soliq ma'muriyatichiligining raqamlashtirilishi (OECD, 2020), byudjet jarayonlarining

shaffofligi (World Bank, 2019) va fiskal nazorat mexanizmlarining mustahkamlanishi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim drayver sifatida ko'rilmoxda.

Shuningdek, ijtimoiy ishonch omili ham alohida ahamiyat kasb etadi. Putnam (2000) o'z izlanishlarida ijtimoiy kapital darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda norasmiy faoliyatning sezilarli darajada pastligini empirika asosida ko'rsatib bergen. Demak, fiskal boshqaruv vositalarining samarali ishlashi nafaqat texnik choralar, balki kengroq institutsional va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, fiskal boshqaruv mexanizmlari makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda uchta asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, soliq bazasini kengaytirish orqali davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi; ikkinchidan, iqtisodiy raqobatning adolatli sharoitini yaratish orqali investitsion jozibadorlikni oshiradi; uchinchidan, soliqqa to'liq rioya qiluvchi qatlam manfaatlarini himoya qilish orqali ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi. Shu bois, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish strategiyasi fiskal boshqaruvning samarali ishlashi va institutsional muhitning sifatlari rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini taqqoslama va tizimli tahlil yondashuvlari tashkil etadi. Avvalo, yashirin iqtisodiyotning nazariy tushunchalari va uni qisqartirishga qaratilgan fiskal boshqaruv vositalari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o'rganildi. Ushbu jarayonda hujjalalar tahlili, institutsional yondashuv va konseptual qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yashirin iqtisodiyotning keng tarqalishi fiskal barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirib, davlat moliyasini boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq bazasining torligi, naqd pul aylanmasining yuqoriligi va rasmiy statistikada to'liq aks etmagan xo'jalik operatsiyalari bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Shu bois fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi nafaqat soliq tushumlarini ko'paytirish, balki iqtisodiy faoliyatni qonuniylashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rinni tutadi.

1-jadval. Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan fiskal boshqaruv yo'nalishlari

Yo'nalish	Amalga oshirish mazmuni	Kutilayotgan natijalar
Naqd pulsiz to'lovlar	Bank kartalari, mobil ilovalar va QR-kodli to'lovlarini keng joriy etish	Naqd pul aylanmasi qisqaradi, shaffoflik ortadi
Mahalliy byudjetlarda shaffoflik	Jamoatchilikka ochiq portal va hisobot tizimlari	Soliq to'lovchilar ishonchi mustahkamlanadi
Soliq rag'batlari	Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq stavkalari	Norasmiydan rasmiy sektorga o'tish tezlashadi

Manba: muallif tomonidan umumlashtirilgan

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi bevosita shaffoflik va ishonch bilan bog'liq. Naqd pulsiz to'lovlarini kengaytirish moliyaviy oqimlarni nazorat qilish imkonini beradi, byudjet jarayonlarida shaffoflik esa davlat va

jamiyat o'rtasidagi ishonchni oshiradi. Soliq rag'batlari kichik biznesni norasmiy faoliyatdan chiqarishda "yumshoq mexanizm" vazifasini bajaradi.

2-jadval. Fiskal boshqaruv vositalarining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri

Natija yo'nalishi	Qisqa muddatli ta'sirlar	Uzoq muddatli oqibatlar
Davlat moliyaviy barqarorligi	Soliq tushumlari ortishi, byudjet defitsitining kamayishi	Qarzga bog'liqlik kamayadi, barqaror moliya
Investitsion muhit	Qonuniy sharoitda ishlovchi biznes soni ko'payadi	Investitsion oqimlar barqarorlashadi
Ijtimoiy adolat	Soliq yukining teng taqsimlanishi	Davlatga ishonch va fuqarolik mas'uliyati ortadi
Iqtisodiy intizom	Norasmiy faoliyat qisqaradi	Makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi

Manba: muallif tomonidan umumlashtirilgan

Fiskal boshqaruv vositalarining qo'llanilishi qisqa muddatda soliq tushumlarini oshirsa, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni kuchaytiradi. Bu jarayon davlat qarzining pasayishiga, investitsion muhitning yaxshilanishiga va iqtisodiy intizomning mustahkamlanishiga olib keladi. Shuningdek, fuqarolarning soliqqa bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgarib, davlat boshqaruviga ishonch ortadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish jarayonida fiskal boshqaruv vositalari faqat texnik choralar emas, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida ko'rinishi zarur. Naqd pulsiz to'lovlar tizimi, jamoatchilik nazorati va soliq rag'batlari kabi mexanizmlarni uyg'un qo'llash orqali davlat nafaqat soliq tushumlarini oshiradi, balki makroiqtisodiy barqarorlik uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Takliflar va xulosa

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi ularning kompleks qo'llanishi, institutsional muhit sifati va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, birinchidan, moliyaviy operatsiyalarni kuzatish va soliq bazasini kengaytirish uchun soliq ma'muriyatichilagini to'liq raqamlashtirish zarur; ikkinchidan, byudjet jarayonlarida shaffoflikni oshirish va jamoatchilikka ochiq ma'lumot platformalarini yaratish orqali davlat boshqaruvining legitimligi mustahkamlanadi; uchinchidan, kichik va o'rta biznesni rasmiy sektorga jalb etish uchun soliq tartiblarini soddalashtirish hamda rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish muhimdir; to'rtinchidan, korrupsiyani cheklash va fiskal intizomni ta'minlash maqsadida nazorat institutlarini mustahkamlash va javobgarlik tizimini kuchaytirish talab etiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash nafaqat fiskal vositalarni kuchaytirish, balki kengroq institutsional islohotlarni amalga oshirishni ham talab etadi. Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, soliqqa bo'yin tov lash imkoniyatlarini kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish orqali davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, ijtimoiy adolatni kuchaytiradi hamda investitsion muhitning jozibadorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, fiskal boshqaruv

vositalarini milliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga joriy etish strategik ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Medina, L., & Schneider, F. (2018). *Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?* IMF Working Paper WP/18/17. International Monetary Fund.
2. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance.* Cambridge: Cambridge University Press.
3. OECD. (2020). *Tax Administration 2020: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies.* Paris: OECD Publishing.
4. Putnam, R. D. (2000). *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community.* New York: Simon & Schuster.
5. World Bank. (2019). *World Development Report 2019: The Changing Nature of Work.* Washington, DC: World Bank.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

